XALQ ERTAKLARINING BOLALAR KITOBXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

X.Sh.Ochilova, O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq ertaklarining maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ularning nutqini rivojlantirish, ma’naviy-axloqiy tarbiyasini boyitish hamda badiiy adabiyotga qiziqishini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ertaklar orqali bolalarda kitob mutolaasi ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: xalq ertaklari, kitobxonlik madaniyati, maktabgacha ta’lim, bolalar adabiyoti, mutolaa, ma’naviy tarbiya, nutq rivoji, axloqiy tarbiya.

Maktabgacha yosh davri bolaning intellektual, ma’naviy va axloqiy jihatdan shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolalarni kitobga oshno etish, ularda mutolaa madaniyatini shakllantirish hamda badiiy adabiyotga qiziqishni rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biridir. Bu jarayonda xalq ertaklari alohida ahamiyat kasb etadi. Xalq ertaklari xalqning asrlar davomida shakllangan ma’naviy merosi bo‘lib, unda ezgulik, halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi yuksak qad riyatlar o‘z aksini topgan.

X.A.Sulaymanovaning ta’biriga ko‘ra, “kitobxonlik madaniyati bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va ularning ma’naviy qadriyatlarini shakllantirishning asosiy vositasidir”. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari: Sh.T. Tojiyevaning tadqiqotlariga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun o‘yin va ijodiy faoliyatning ahamiyati katta. N.I.Novikovning qayd etishicha, “Bolalarning murg‘ak qalbiga hech bir narsa ibratdek kuchli ta’sir etmaydi va barcha ibratlar ichida ota-ona ibratidan ko‘ra chuqurroq va mustahkamroq o‘rin oladigan ibrat yo‘q”. Shu boisdan, bolada kitobga ijobiy munosabatning singdirilishida oila bilan hamkorlikning o‘rni muhimdir. S.Wolife Kitob bolalarga yangi bilimlarni berish va ularning nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim, L.Suzanne kitob bolalarga o‘qish odatini shakllantirishda va til ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi kabilarning tadqiqot ishlarida ilgari surilgan g‘oyalarga ma’lum darajada asoslanildi. Xalq ertaklari bolalarni kitobxonlikka jalb etuvchi eng qiziqarli badiiy janrlardan biridir. Ertaklarning sodda va tushunarli tili, qiziqarli syujeti hamda yorqin obrazlari bolalarda kitob o‘qishga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Ayniqsa, maktabgacha katta yoshdagi bolalar ertak qahramonlarining xatti-harakatlarini kuzatib, ularning yaxshi va yomon tomonlarini taqqoslash orqali hayotiy xulosalar chiqaradilar.Ertaklar orqali bolalarda kitob bilan ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Tarbiyachi yoki ota-onalar tomonidan ertaklarni ifodali o‘qib berish, mazmunini muhokama qilish, qahramonlarni tavsiflash va voqealarni qayta hikoya qildirish bolalarning kitobxonlik faolligini oshiradi.

Tadqiqot maqsadi – maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Maktabgacha ta‘lim tashkilotining kichik kutubxonasi va undagi pedagogic ishlar mazmuni bolalarning 5 yoshida yuz beradigan adabiy rivojlanishidagi o‘zgarishlar bilan aniqlanadi: katta guruhdagi maktabgacha yoshdagi bola uchun uning ma‘naviy hayotining ajralmas qismi bo‘lib qoladi, uning shaxsiy qiziqishlari ifodalangan adabiyotga ishtiyoq paydo bo‘ladi. Kitobda qanchalik mukammal so‘zlar mavjud bo‘lsa, kelajakda bolaga bu so‘zlarni o‘rganishi yanada oson bo‘lar ekan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kitobga qiziqish uyg‘otish uchun yetarli va qulay sharoitlarni yaratish zarur. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kichik kutubxona yaratish, uning faoliyatini tashkil etish va bolalar badiiy adabiyotidan samarali foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kichik kutubxonani tashkil etishga bir qator talablar belgilab berilgan: kichik kutubxona joylashadigan xonani aniqlash.

Tadqiqot metodologiyasi maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari bola shaxsi intilishlari individualligini va anglab gapirish ko‘nikmalarini variativ va guruhiy ishlash darajasi intensivligini bevosita hisobga olish hamda badiiy nutqni shakllantirish jarayonlarini motivatsion, kognitiv, faoliyatli bosqichlari va pedagogik shartlari aniqlashtirishga oid takliflar “Nutq o‘stirish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish tasniflangan. maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish metodikasi dealektik aqliy qarashlar, situativlik, lug‘at boyligini oshirish, topshiriqlar berish, interfaol o‘yin texnologiyalardan foydalanish hamda kitob mazmunini va badiiy nutqni jonlantirishda shaxsiy kuzatuvlardan foydalanish imkoniyatlarini rag‘batlantirish asosida takomillashtirishga.

Tadqiqot metodlari: tadqiqotda qiyosiy, tanqidiy tahlil, pedagogik kuzatish, sotsiometrik (suhbat, anketa, intervyu), pedagogik eksperiment, matematik statistika usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot tashkil etilishi. “Kitobxonlik”, “madaniyat”, “variativlik”, “bog‘lanishli nutq”, “monologik nutq”, “dialogik nutq”, “grammatik nutq” tushunchalarining mazmun-mohiyati, kompetensiyaviy yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning o‘ziga xosliklari ochib berilganligi, maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning psixologik-pedagogik, metodik xususiyatlarining aniqlashtirilganligi, individual va guruhiy yondashuv asosida maktabgacha katta

yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning didaktik imkoniyatlarining yoritib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari. Zamonaviy ta'limning bola shaxsiga yo‘naltirilganligi yetakchi rol o‘ynaydi, chunki bu yerda maktabgacha yoshdagi bolaning tug‘ma xususiyatlari hisobga olinadi. Birinchi guruh muloqotda tashabbuskorlik, eshitish, xotiraning ustunligi, stereotipli javoblar, takroriylik, analitik masalalarni sekin yechish bilan nutq ravonligi ajralib turadi. Ikkinchi guruh passivlik, ixtiyoriy yodlashning ustunligi, vizual xotira, stereotipli bo‘lmagan javoblar, analitik masalalarni yechish tezligi bilan kam sonli takrorlanishlar xosdir. Psixologlarning fikriga ko‘ra, ikkinchi guruh bolalar nisbatan ko‘proq uchraydi. Mazkur xususiyatlarning hammasi maktabgacha ta'lim yoshidagi bola bilan muloqot qilish va bog‘lanishli nutqqa undash uchun asos bo‘lib xizmat qila oladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi

Natijalar tahlili. Bolalarga ertak to‘qish va unga sarlavha qo‘yish taklif qilinadi. Topshiriqni bajarish uchun qo‘shimcha topshiriqlar yo‘q. Ertak quyidagicha baholanadi: 1) ertak mazmunini tushunmasligi; 2) sarlavhaga mazmunning mos kelishi; 3) ertakning mantiqiyligi, tugatilganligi; 4) nutqning grammatik jihatdan to‘g‘riligi; 5) lisoniy ifodalilik vositalaridan foydalanish.

Yuqoridagi mezonlarga javob beradigan har bir javob 3 ball bilan baholanadi, umumiy miqdori 15 ball. Yig‘ilgan ballar soni ertak yaratish mahorati va ko‘nikmalarini ko‘rsatadi.

Olingan ma'lumotlar tarbiyachining bolaning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun nutq boyligini boyitishga yordam beradi, asarning mazmunini o‘rganish ahamiyatini aniqlashni o‘rganadi.

1-guruhga topshiriq: Mavzuni yoritish. Bolaning hikoyasi sarlavha va mazmunda belgilangan mavzuning dolzarbligi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

2-guruhga topshiriq: Hikoyani sifatli tahlil qilish, xabar qilinayotgan mavzudan xabardorlikning mavjudligiga, mavzu bolaning unga bo‘lgan qiziqishiga bog‘liq; ma'lumot uzatishning to‘liqligiga intilishdan; bolaning aqliy faoliyatini shakllantirish darajasida.

3-guruhga topshiriq: Hikoya qilib berish tartibiga amal qilish. Bolalar kompozitsiyalarini tahlil qilishda nafaqat voqealarni uzatish ketma-ketligini, boshlanishi, o‘rtasi va oxiri borligini, balki oxirining sarlavha bilan o‘zaro bog‘lanishligini ham hisobga olish kerak.

Xulosa. O‘tkazilgan ilmiy tahlillarni umumlashtirish natijasida, uslubiy ko‘rsatma va tavsiyalarga asoslanib, shuningdek, ularning samaradorlik darajasini baholab, biz maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda ta'limga individual yondashuv texnologiyalarini takomillashtirish samaradorligini aniqlashga doir tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi: mazmuni va natijalari bo‘yicha quyidagi xulosalarga keldik:

1. Dunyoda ro‘y berayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim tizimini isloh qilish zaruratini keltirib chiqardi.

2. Mavjud manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha yoshdagi davr bola shakllanishiga ta’sir qiladi va bu moddiy resurslar, ma’naviy qadriyatlar, shaxslararo munosabatlarning kombinatsiyasi hisoblanadi. Ta’lim jarayoni faoliyat mahsuli bo‘lib, bolaning maqsadga muvofiq shakllanishiga yordam beradi.

Xalq ertaklarining mazmun-mohiyati: Xalq ertaklari xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va ommabop janrlaridan biridir. Ertaklarda yaxshilik va yomonlik, adolat va zulm, mehnat va dangasalik o‘rtasidagi kurash badiiy obrazlar orqali aks ettiriladi. Ularning syujeti sodda, qiziqarli va bolalar yoshiga mos bo‘lib, tinglovchining diqqatini o‘ziga tortadi. O‘zbek xalq ertaklari orasida “Zumrad va Qimmat”, “Ur to‘qmoq”, “Boy ila kambag‘al”, “Susambil”, “Oltin tarvuz” kabi ertaklar alohida o‘rin tutadi. Ushbu ertaklar orqali bolalar hayotiy tajriba va axloqiy saboqlarni egallaydilar.

Ertaklarning bolalar ma’naviy-axloqiy tarbiyasidagi o‘rni: ertaklar bolalarda ijobiy insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ertak qahramonlarining xatti-harakatlari orqali bolalar yaxshilik va yomonlikni farqlashni o‘rganadilar. Ertaklar yordamida:halollik; rostgo‘ylik; mehr-oqibat; do‘stlik; mehnatsevarlik;sabr-toqat; kattalarga hurmat kabi fazilatlar tarbiyalanadi. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagida mehnatsevarlik va kamtarlik ulug‘lansa, dangasalik va baxillik qoralanadi. Bu esa bolalarda ijobiy xulq-atvor me’yorlarini shakllantirishga yordam beradi.

Xalq ertaklarining bolalar nutqi va tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati: Ertaklar bolalar nutqini rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Ertaklarni tinglash va qayta hikoya qilish jarayonida bolalarning lug‘at boyligi kengayadi, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish malakasi shakllanadi.

Ertaklarning bolalar nutqiga ta’siri:yangi so‘zlarni o‘zlashtirish; bog‘lanishli nutqni rivojlantirish; dialogik va monologik nutqni shakllantirish; fikrni izchil bayon etishga o‘rgatish. Shuningdek, ertaklar bolalarning tafakkurini rivojlantiradi. Voqealar rivojini kuzatish, qahramonlarning harakatlarini tahlil qilish va xulosa chiqarish orqali mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi. Ertaklar orqali estetik va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish: Xalq ertaklari bolalarda go‘zallikni his qilish, tasavvur qilish va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ertak qahramonlari va voqealarini tasavvur qilish jarayonida bolalarning fantaziyasi boyiydi. Ertaklar asosida:rasm chizish; sahnalashtirish; rolli o‘yinlar tashkil etish; qo‘g‘irchoq teatrlari uyushtirish mumkin. Bu faoliyatlar bolalarning ijodiy fikrlashi, estetik didi va badiiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Maktabgacha ta’limda xalq ertaklaridan foydalanish usullari: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ertaklardan foydalanishda quyidagi metodlardan samarali foydalanish mumkin: 1) Ertakni ifodali o‘qib berish. 2) Suhbat va savol-javoblar tashkil etish. 3) Ertak mazmunini qayta hikoya qildirish. 4) Ertak qahramonlarini sahnalashtirish. 5) Rasmlar asosida ertak tuzdirish. 6) Qo‘g‘irchoq teatrlari tashkil etish. 7) Multimedia

vositalari orqali ertaklarni namoyish etish. Bu esaб ularning badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishini mustahkamlaydi.Xalq ertaklari bolalar nutqini rivojlantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Ertaklarni tinglash va qayta hikoya qilish jarayonida bolalarning lug‘at boyligi ortadi, bog‘lanishli nutqi rivojlanadi hamda fikrni izchil ifodalash ko‘nikmalari shakllanadi. Shuningdek, ertaklardagi obrazli iboralar va xalqona hikmatlar bolalarning til boyligini kengaytiradi.Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda ertaklar ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ertaklarda yaxshilikning yomonlik ustidan g‘alaba qilishi, halol mehnatning qadrlanishi va insoniy fazilatlarning ulug‘lanishi bolalarda ijobiy axloqiy sifatlarni shakllantiradi. Natijada ular kitob orqali hayotiy tajriba orttirib, ma’naviy jihatdan boyib boradilar. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida xalq ertaklaridan foydalanishning zamonaviy usullari keng qo‘llanilmoqda. Jumladan, sahnalashtirish, rolli o‘yinlar, rasm chizish, multimediali taqdimotlar va interaktiv mashg‘ulotlar bolalarning ertaklarga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi. Bu esaб kitobxonlik madaniyatining samarali shakllanishiga xizmat qiladi.

Xalq ertaklari maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ular bolalarda kitobga mehr uyg‘otadi, mutolaa ko‘nikmalarini shakllantiradi, nutq rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi hamda ma’naviy-axloqiy tarbiyani boyitadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlari va oilalarda xalq ertaklaridan keng foydalanish bolalar kitobxonligini rivojlantirishning samarali omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Axmadaliyev S.Y. Maktabgacha yoshdagi bolalarda didaktik o‘yinlar vositasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish. Konferensiya maqolasi. 2024-yil 23-may. 62b.

2. Sulaymanova X.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish. – T.: O‘zbekiston, 2018.

3. Najmiddinova G.O. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bog‘lanishliy nutqini tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish: PhD ... dis. Avtoref. – T., 2022.

4. Tuychiyeva I.I. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish: Ped. fanl. bo‘yicha fals. d-ri (PhD) ... dis. Atoref. – T., 2020. – 45 b.

5. Wolfe S., Flewitt R.S. (2010). New technologies, new multimodal literacy practices and young children’s metacognitive development // Cambridge Journal of education. 40(4): 387-399.